

MAMLAKATIMIZDA MUHLARNING PAYDO BO'LISHI TARIXI HAQIDA

Tursunov Nurullo Narzullayevich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti "Tarix" kafedrası

dotsenti, tarix fanlari doktori (DSc)

<https://orcid.org/0009-0007-0198-0329>

UDK: 94(575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqolada muhrlarning qadimiy madaniyat va ma'naviyatdagi o'рни, ularning huquqiy, diniy va madaniy ahamiyati yoritilgan. Muhrlar hujjatlarning haqiqiylikni tasdiqlash, shaxs yoki tashkilotga tegishlilikni aniqlash va ma'lum joylarga ruxsatsiz kirishni cheklash maqsadida ishlatilgan. Muallif diniy manbalarda muhrlar qanday qo'llanilgani haqida misollar keltiradi va muhrlarni o'rganishda sfragistika fanining ahamiyatini ta'kidlaydi. Shaxsiy kutubxonalar, qo'lyozmalar va arxeologik topilmalar orqali muhrlarning tarixiy manba sifatidagi qimmatini ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Muhrlar, qadimiy madaniyat, qo'lyozmalar, Markaziy Osiyo tarixi, sfragistika, hujjat haqiqiylik, diniy manbalarda muhrlar, muhr san'ati, muhr izi, kutubxona muhrlari, vakolat ramzi, arxeologik topilmalar, madaniy meros.

Annotation: This article explores the role of seals in ancient culture and spirituality, focusing on their legal, religious, and cultural significance. Seals were used to confirm the authenticity of documents, identify ownership, and prevent unauthorized access to restricted areas. The author provides examples of the use of seals in religious texts and highlights the importance of sphragistics as a field of study. Seals found in manuscripts, personal libraries, and archaeological discoveries are examined as valuable historical sources.

Keywords: Seals, ancient culture, manuscripts, Central Asian history, sphragistics, document, authenticity, seals in religious sources, seal art, seal impression, library seals, symbol of, authority, archaeological findings, cultural heritage.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль печатей в древней культуре и духовной жизни, а также их правовое, религиозное и культурное значение. Печати использовались для

подтверждения подлинности документов, установления принадлежности и ограничения несанкционированного доступа. Автор приводит примеры использования печатей в религиозных источниках и подчёркивает значение науки сфрагистики. Печати, найденные в рукописях, личных библиотеках и археологических раскопках, рассматриваются как ценные исторические источники.

Ключевые слова: Печат, Древняя культура, Рукописи, История Средней Азии, Сфрагистика, Подлинность документов, Печати в религиозных источниках, Искусство, печатей, Отпечаток печати, Библиотечные печати, Символ власти, Археологические находки, Культурное наследие.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Xalqimizning qadim madaniyati va ma'naviyati taraqqiyot bosqichlarida muhrlarning o'ziga xos o'рни bor. Muhrlar odatda loy yoki mum kabi materiallarga nusxa tushirish uchun xizmat qilgan matnning (matn va rasmning) qabariq yoki botiq tasviri bo'lgan bosma shakl (asbob) hisoblanadi. Muhrlar to'g'risida keltirilgan ma'lumotlar har bir davrda o'zining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlarini ifodalashda har xil vazifalarni bajarishi bilan xizmat qilgan.

MUHOQAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Muhrlar turli shaklda, jumladan, konus, to'rtburchak, silindr va hatto hayvon kallasi shaklida bo'lgan [1.]. Muhr izi yordamida hujjat egasini aniqlash yoki hujjatning haqiqiylikni tasdiqlash mumkin edi. Shuningdek, u xaltalarni begonalar ochishi yoki muayyan joylarga, masalan, maqbaralarga noqonuniy ravishda kirishi mumkin emasligini ko'rsatish uchun qo'llanilgan.

Tarixiy manbalarda keltirilishicha, muhrlarning ishlatilishi bu Markaziy Osiyoning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida muhim rol o'ynagan. Bunda muhrlar haqida fikr yuritganimizda, Markaziy Osiyoda yaratilgan qo'lyozmalardan olingan ma'lumotlar yanada muhim qiziqish uyg'otishi tabiiydir. Markaziy Osiyoda yaratilgan qo'lyozmalarni tadqiq etish orqali, aksariyat qo'lyozmalarga muhrlar bosilgan va ularning har birining o'z vazifasi bo'lganligi aniqlanadi [2.,530-537].

O'zR Milliy davlat arxivining 323-sonli asosiy jamg'armasida 758/6-7-raqam ostida Ismoil Somoniy avlodlariga berilgan vaqf hujjatining keyingi asrlarda ko'chirilgan nusxasi saqlanadi. Fors tilida yozilgan bir-biriga yopishtirilgan qog'oz varaqlarning uzun o'rami ko'rinishidagi ushbu hujjat "Vaqfiya-i avlod-i podshoh-i Ismoil Somoniy" ("Podshoh Ismoil Somoniy avlodlarining vaqf hujjati") deb nomlanadi. Hujjatning haqiqiylikni tasdiqlash uchun o'ramdagi varaqlarning bir-biriga yopishtirilgan joylarida varaqlarning har ikki tomoniga 2,5 sm aylanali dumaloq shakldagi jami 13 ta muhr bosilgan.

Muhrda amir Shoh-Murod (hukmronligi 1785-1800) ismi yozilgan va 1198/1784-85 yil ko'rsatilgan. Hujjat matnida uning 254/868 yilda Ismoil Somoniy tomonidan tuzilganligi qayd etilgan. Hujjatda Somjan arig'i atrofidagi yerlarning Ismoil Somoniy avlodlariga vaqfga o'tkazilishi haqida so'z boradi. O'zRFAning Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan 572a sonli hujjatdan farqli tarzda ushbu hujjatda vaqfga aylantirilgan barcha yerlar, qishloqlar va aholi maskanlarining aniq chegaralari ko'rsatilgan. 1287-sonli va 758/6-7-sonli hujjatlarga ko'ra, Ismoil Somoniy vaqf mulklari shaharning o'zida va 4 ta tuman – Somjan, Xutfar, Rud va Poy-i Rud yerlarida joylashgan.

O'zbekiston Respublikasi va sport ishlari vazirligi Madaniy meros yodgorliklarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish bosh boshqarmasining arxivida 3499-3510-raqamlar ostida fors tilida tuzilgan bir hujjatning fotonusxasi mavjud bo'lib, uning asl nusxasi ilgari O'zbekiston Respublikasi Milliy davlat arxivida saqlangan, ammo hozirda yo'qolgan.

Arxivning Buxoro vaqf hujjatlari jamg'armasi qayd kitobida bu hujjat 1287-

raqam ostida "Ismoil Somoniy vaqf hujjati" sifatida qayd etilgan. Mazkur hujjat matni mazmun jihatidan 758/6-7-sonli hujjat matni bilan bir xil bo'lib, unda jiddiy tafovutlar yo'q. Hujjat matniga ko'ra, go'yoki u 254/868 yilda yozilgan asl nusxadan ko'chirilgan, ko'chirish sanasi hijriy 675 yil muharram oyining 4-kuni (milodiy 1277 yil 7 iyunga to'g'ri keladi) deb ko'rsatilgan. Biroq buni hujjatning qo'lyozmasi xususiyatlari tasdiqlamaydi. U oddiy nasta'liq yozuvida yozilgan bo'lib, bu yozuv XVII asrdan XIX asrgacha O'rta Osiyoda keng tarqalgan. O'ramning 17 joyida 1800-1826 yillarda Buxoro amirligida hukmronlik qilgan "Sulton Amir Haydar" nomi yozilgan, uning uzunligi taxminan 2,5 sm bo'lgan bodomsimon muhrlar bosilgan.

Shuningdek, mazkur vaqf hujjatining 6 ta o'rnida boshqa hujjatlardan ham ma'lum bo'lgan Mirzo Muhammad Aminning o'g'li Oliy qozi Mirzo Muhammad Fozil ismli yozilgan dumaloq shakldagi muhrlar bosilgan. Shunday qilib, hujjatning yozuvi xususiyati va muhrlardagi yozuvlarning mazmuni ushbu nusxa XIX asr boshlarida ko'chirilgan deb xulosa chiqarishga imkon beradi. Hujjatga 1332/1914 yillarda tuzilgan dehqonlarning majburiyatlari ko'rsatilgan 6 ta to'liq nizom va 1 ta nizomning yarmi, ilova qilingan [3., 259-270].

Muhr – kutubxona timsoli. Odatda qo'lyozma varaqlaridagi muhrlar orqali qo'lyozma egasi kim bo'lganini aniqlash mumkin. Agar ayni bir muhr bir qancha kitoblarga qo'yilgan bo'lsa, ular bir shaxs kutubxonasiga tegishli bo'ladi. Bu orqali shaxsiy kutubxonalarni aniqlash ancha qulay. Muhr yordamida hujjat muallifi aniqlanadi. Soha ustalari tomonidan mohirlik bilan o'yilgan muhrlar ko'p hollarda san'at asariga tenglashtiriladi.

Arab yozuvidagi muhr va uning aksi – bu shunday tarixiy manbalardan biri bo'lib, tarixchilar uni hali to'liq baholay olmagan va u hali "ochilmagan qo'riq" dir. Bu muhrlar nafaqat yuz minglab hujjatlarga, balki O'zbekiston hududida saqlanayotgan minglab qo'lyozmalarga ham bosilgan [4.,32-36].

Muhrlar turli xomashyolardan, xususan, suyak, ohaktosh, metall, yarim qimmatbaho tosh yoki yog'ochdan tayyorlangan. Ba'zida,

muhrlar ustiga egasining va otasining ismi o'yib yozilgan. Ayrim muhrlarda egasining unvoni qayd etilardi. Biron-bir hujjatning haqiqiylikni tasdiqlash uchun muhrning egasi unga loy, mum yoki boshqa yumshoq modda surtib, hujjat ustiga muhr bosardi. Keyin modda qotardi va hujjatni qalbakilashtirishdan himoya qilishgan[5.,272].

Muhrlar biror kimsaga berilganida, muhr egasining vakolati unga topshirilganini anglatgan. Qadimgi Misr fir'avni payg'ambar Yoqubning o'g'li bo'lmish ibroniy kishi Yusufga hokimiyatni berganida, aynan shunday yo'l tutgandi. Gap shundaki, Yusuf Misrda qul bo'lgandi va bir kuni uni nohaq ayblab, zindonga tashlashgan. Vaqt o'tib, fir'avni uni ozod qilgan. U esa bosh vazir lavozimiga tayinlangan. Muqaddas Kitobda shunday deyilgan: "Keyin fir'avni barmog'idan muhr uzugini yechib, uni Yusufning barmog'iga taqdi". Muhr uzugida fir'avnning rasmiy muhri bo'lgani uchun, Yusuf fir'avnning ishlarini uning nomidan bajarish vakolatiga ega bo'lgan.

Bir safar qadimgi Isroil malikasi Izabel erining muhridan foydalanib, Navo't ismli odamni o'ldirish rejasini amalga oshirgan. U shoh Axabning nomidan Navo't yashaydigan shahar oqsoqollariga xatlar yozib, aybsiz Navo'tni Xudoni la'natlaganlikda ayblashni buyurgan. Izabel xatlar ustiga shohning muhrini bosib, o'zining yovuz niyatiga erishgan[6.,160].

Fors shohi Axashverash ham o'zining muhr uzugidan foydalanib, farmonlarini tasdiqlangan. Alloh Kalomining Naximiyo kitobida ta'kidlanishicha, Isroil beklari, levilar va ruhoniylar yozma ravishda tuzilgan ahdlarga muhr qo'yib, ular bilan rozi ekanini ko'rsatishgan.

Muqaddas Kitobda muhr biron-bir joyga kirishni ta'qiqlash maqsadida ishlatilgani ikkita vaziyatda tilga olingan. Masalan, Doniyor payg'ambari sherlar uyasiga tashlashganida "chuqurlikning og'zini tosh bilan yopishgan". So'ngra Fors va Midiya shohi Doro "Doniyorga qarshi chiqarilgan farmon o'zgartirilmasligi uchun, o'zining va asilzodalarining muhr uzugi bilan toshni muhrlagan" [7.].

Iso alayhissalomning jasadi qabrga qo'yilganida, uning dushmanlari qabr og'zini yopish uchun toshni yumalatib, unga muhr

bosishgandi. Bir manbada aytilishicha, Rim hukumatining davlat muhridan foydalanilgan vaziyatda "qabr og'zi va... tosh orasidagi yoriqqa loy yoki mum surtilardi va ustiga o'sha muhr bosilardi".

Qadimgi muhrlar bizga o'tmish haqida ko'p narsani ochib bergani uchun arxeologlar va tarixchilar ularga katta qiziqish bildirmoqda. Hatto muhrlarni o'rganuvchi "sfragistika" deb nomlangan alohida fan mavjud [8.].

Мухрлар — шахсий мулкнинг шаклланишини кузатишда, давлатчилик тарихини ўрганишда асосий ашёвий манбалардан бири ҳисобланади. У жамият тараққиётининг маълум бир bosқичида, яъни энеолит даврида пайдо бўлади[9]2 .

Ilk muhrlarda geometrik tasvirlar ifodalangan bo'lsa, xususiyl mulk va davlatlarning paydo bo'lishi bilan muhrlarda ifodalangan tasvirlar mazmun jihatidan orta boradi. Eron, Afg'oniston va O'rta Osiyoda hayvonlar va insonlar ifodalangan muhrlar bronza davrida paydo bo'ladi. Demak, muhrlar O'rta Osiyoda shaxsiyl mulk shakllanganidan so'ng uning in'ikosi sifatida paydo bo'lgan[10]3 .

Qadimgi Sharq hududlaridan topilgan muhrlar yasali sh uslubi, ularda ifodalangan tasvirlarga qarab Mesopotamiya, Suriya, Anadoli, Vaviloniya, Misr kabi maktablarga bo'linadi[11]4 .

So'nggi yillarda muhrlarning Baqtriya-Marg'iyona varianti ham paydo bo'ldi. Baqtriya-Marg'iyona gliptika variantining paydo bo'lishida yuqorida eslab o'tilgan madaniyat markazlarining, xususan Suriya — Anadoli gliptika maktabining madaniyl ta'siri to'g'risida ko'plab yozilmoqda[12]1 .

Sopolli madaniyatining eng asosiy yodgorliklari hisoblangan Sopollitepa va Jarqo'ton yodgorliklaridan ko'plab muhrlar topilgan va adabiyotlarda yoritilgan[13]2 .

Bronzadan yasalgan muhrlarni to'pbargsimon (olti, sakkiz bargli), yulduzsimon va muhr-to'g'nag'ichlarga ajratish mumkin. O'z navbatida to'g'nag'ich-muhrlar ham muhr vazifasini o'tagan boshi shakliga qarab quyidagi shakllarga ajraladi: A) to'pbargsimon; b) to'pgullisimon; v) yulduzsimon; g) aylana. Toshdan yasalgan muhrlarning aksariyatini gipsdan yasalgan

muhrlar tashkil etadi. Ular shakl jihatidan a) aylana; b) qo'ziqorinsimon; v) yulduzsimon; g) silindr kabi turlarga ajraladi. Sopoldan yasalgan muhr bir dona bo'lib, u yuqorida eslab o'tganimizdek konus shakliga ega.

Shimoliy Afg'oniston, Janubiy Turkmaniston, Markaziy Eron yodgorliklaridan ko'plab bronzadan yasalgan muhrlar topilgan. U qolip yordamida, quyma usulida yasalgan bo'lib, aylana shaklida, ammo yuza sathiga ega bo'lmagan muhrdir. Muhr yuzasi markazida xoch, uning to'rtta uchida ikkitadan yarim oy shakli ifodalangan. Yarim oy tasvirlari xochdan tashqari ikki uchi bilan aylana shakldagi muhr chekkalariga ham tutashgan[14].

Turk xoqonligi davrida Toshkent vohasida ko'proq xoqonlik tangalari muomalada bo'lgan. Bu paytda bir qator katta-kichik hukmdorliklarda mahalliy mis tangalar ham zarb etilgan. Ularning reversidagi (Rv) tushirilgan sulolaviy urug' ramzlari – tamg'alar bir-biridan farqlangan. Bir-biridan birmuncha farq qiluvchi bunday tamg'alar ism, unvon, hukmdorlik nomini anglatuvchi sug'diy yozuvlar vositasida tanga doirasining ichida tasvirlangan. Tangalarning har bir guruhi ularning Av hukmdorning portreti shuningdek, G'arbiy Turk xoqonligining bosh hukmdori va malika hamda sher va tuya kabi hayvonlar tasvirlari o'rin olgan.

Olmaliq shahridan shimoli-g'arbdagi Qulota xarobasi yaqinidan nauslar topilgan. 1978 yildagi qazishmalar paytida sag'ananing paxsadan, devorlari xom g'isht va paxsadan, qubbasi (gumbazi) xom g'ishtdan qurilganligi aniqlangan bo'lib, uning ichidan odam suyaklari bilan birga sopol siniqlari hamda Av qadimgi turklarni qiyofadagi Choch hukmdori tasvirlangan Rv tomoniga ayrga o'xshash (panshaxasimon) tamg'a tushirilgan VI-VII asrlarga oid mis tangalar topilgan [15, -S.38-

42]. Bunday tangalarning ayrim tiplarida "tegin", ayrimlarida esa "Choch tuduni" kabi qadimgi turkcha unvonlar o'rin olganligi ularning G'arbiy Turk xoqonligi davrida vohaning turkiy sulolalari tomonidan zarb qilinganidan darak beradi [16, -S.44-63].

Choch muhrlari orasida to'rtburchak shakldagisi juda noyob bo'lib, unda islomdan avvalgi Choch hukmdorligiga tegishli tamg'a (sanchqisimon) bilan bir xil [17, -C.391,52-70]. Ayniqsa, milodiy 640-750 yillarda Choch boshqaruvida bo'lgan turkiy Choch Tudunlari sulolasi tangasidagi tamg'a bilan ushbu tamg'aning birday ekanligi [18, -C.52-70] bu muhrning mazkur sulolaga tegishli yoki tegishli emasligi xususida fikr yuritishga undaydi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, muhrlar ham turlicha yasalgan, ayrimlari, juda jozibador ishlangan bo'lsa, ba'zilar esa umuman sodda bo'lganini ko'rish mumkin. Muhrlar huquqiy asosga ega bo'lib, ma'lum vakolat ega bo'lgan shaxsning nomidan, hatto davlat nomidan ham ish olib borilgan. Muhrlar hatto savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalarning rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etgan.

Maqolada, bugungi kunda ham yuridik shaxsga ega bo'lgan kishilar bunday vakolatdan foydalanishi haqida tarixiy manbalarga tayanib, shuni aytib o'tish mumkinki, muhrlar nafaqat belgi, balki kishi nomidan ham uning tasdig'ini belgilash vakolatini ham o'z ichiga olganligi ilmiy jihatdan tahlil etildi. Demak, muhrlar nafaqat davlatning ramziy belgisi sifatida, balki ma'lum bir qabila, urug' yoki biror bir kishining nomi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Bu esa muhrning katta imtiyozlarga, vakolatlarga ega bo'lishini ham bildiradi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Вақф хужжати. Қўлёзма. 1305/1887 йил. Муаллиф шахсий кутубхонасида.
2. Диваев А.А., Ахмеров П.Н. Описание печати Ахмеда Ясеви. Известия общества археологии истории и этнографии при Императорском Казанском университете. – Казань, 1896. Т. XIII. – С. 530-537.
3. Чехович О.Д. Крестьянский обязательства 1914 г. на основании мнимой грамоты Исмаила Самани // Исторический записки АН СССР, том 33 / Отв.ред. Б.Д. Греков. М.: Изд-во АН СССР, 1950. –С. 259-270.

4. Жуvonмардиев А. Нодир сахифалар. – Тошкент, 1977. – Б. 32-36.
5. Зиёдов Ш.Ю. XV-XX аср бошларида Марказий Осиёда кутубхоначилик тарихи (қўлёзма манбалар ва улардаги муҳрлар таҳлили асосида). Тар.ф.д., – Тошкент, 2022. – 272 б.
6. Зиёдов Ш. Материалы по Среднеазиатской сфрагистике (Ташкент. XIX-начало XX вв.). Монография. – Самарканд: МИЦАИ, 2020. – 160 с.
7. Иршоднома. Қўлёзма. Самарқандлик С.Қаюмова хонадонида сақланади.
8. Иршоднома. Қўлёзма. Тойлоклик Шерозхон Ҳаётхон ўғли хонадонида сақланади.
9. Mellaart J. Çatal Hüyük. A Neolithic Town in Anatolie. — L., 1967. —P. 218.
10. Amiet P. Glyptique Susienne // Des origines a L'epoque des perses Achemenides (MDAI, XLIII). — Paris, 1972. — P. 147-161; Массон В.М. Первые цивилизации. — Л.: 1989. — P.191; Антонова Е.В. К проблеме функций печатей ранних земледельцев Востока // СА. №4, 1984. — С. 26-34; Сарианиди В.И. Сиро-Хеттское происхождение Бактрийско-Маргианской глиптики // ВДИ. — М.: № 1, 1999. — С. 53.
11. Baghestani Suzanne. Metallene Compartimentsiegel aus Ost-Iran, Zentralasien und Nord-China // Archaologie in Iran und Turan. Band 1. — Leidorf, 1997. — P. 3-8.
12. Сарианиди В.И. Сиро-Хеттское происхождение ... — С. 53; Winckelmann Sylvia. Intercultural Relations between Iran, the Murghabo-Bactrian Archaeological Complex (BMAC), Northwest India and Failaka in the Field of Seals // East and West. Vol.50, 2000, — P. 43-95; Salvatori S. Bactria and Margiana Seals // East and West. Vol.50, 2000, — P. 97-145.
13. Аскарлов А.А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы Юга Узбекистана. – Тошкент, Фан, 1977. – 248 с.
14. Сарианиди В.И. Древние земледельцы Афганистана. — М.: Наука, 1977. - 86 с.
15. Буряков Ю.Ф. Новые данные к стратиграфии городища Кульата // ОНУ. № 9. – Ташкент: Фан, 1978. – С. 38–42.
16. Бабаяров Г. Древнетюркские монеты Чачского оазиса ... С. 44–63.
17. Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет ... С. 391; Бабаяров Г. Древнетюркские монеты Чачского оазиса ... С. 52 – 70.
18. Бабаяров Г. Древнетюркские монеты Чачского оазиса ... С. 52 – 70. Fayzulla, O. (2020). The craftsmanship of the emirate of bukhara at the second half of the XIX century-the beginning of the XX century. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research,2(11), 33-38.